

## TARIXIY OBIDALAR — O’TMIHDAN BOY MEROS

**Abduganiyeva Araylim Abduxamidovna**

*Webster University Toshkent talabasi,*

*“Abacus” nodavlat ta’lim markazi ingliz tili o’qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada tarixiy obidalarimizning jamiyat hayotidagi o’rni, ularning ma’naviy va ma’rifiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada asosan O’zbekiston hududida joylashgan tarixiy yodgorliklar misolida ularning xalq ongini shakllantirishdagi roli va turizm rivojiga qo’shayotgan hissasi tahlil qilinadi. Tarixiy obidalarni asrab-avaylash borasidagi muammolar va yechimlar ham keltiriladi. Yakunda ularni targ‘ib qilish orqali yosh avlodda milliy iftixor tuyg‘usini oshirish zarurligi ta’kidlanadi.*

**Kalit so‘zlar:** *tarixiy obidalar, meros, madaniyat, turizm, qadriyat, ta’lim.*

### KIRISH

Abu Nasr Forobiy aytganidek, “O’tmishni bilmagan kelajakni anglay olmaydi.” Har bir xalqning faxru iftixori uning tarixiy xotirasi – obidalaridadir. Tarixiy yodgorliklar nafaqat me’moriy san’at namunasi, balki o’tmish ajdodlarimizning tafakkuri, e’tiqodi va madaniy hayotidan darak beruvchi beqiyos merosdir. Bugungi maqolada aynan shu boy merosni asrash, uni yosh avlodga tanishtirish va jamiyatdagi ijtimoiy-ma’naviy rolini yoritish maqsad qilinadi. Maqola barcha yoshdagi o’quvchilar, talaba-yoshlar va madaniyat sohasi xodimlari uchun foydali bo’lishi mumkin.

### ASOSIY QISM

O’zbekiston – qadimiylar va boy tarixga ega yurtdir. Afrosiyob, Ichon qal’a, Shohizinda, Ulug’bek rasadxonasi, Minorai Kalon – bularning har biri ming yillik tarixni o’zida mujassam etgan. Ushbu obidalar milliy o’zligimizni anglashda, tariximizni chuqurroq tushunishda, xalq ruhiyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy yodgorliklar o’zida noyob san’at va me’morchilik namunalarini jamlagan. Masalan, Samarqanddagi Registon majmuasi Sharq renessansi davridagi ilm-fan, san’at va hunarmandchilik yuksakligini ifodalaydi. Shu jihatdan qaraganda, obidalarni o’rganish va ularni yosh avlodga yetkazish muhim ilmiy-ma’naviy vazifadir.

Bugungi kunda ushbu obidalarni asrab-avaylash borasida bir qancha chora-tadbirlar ko’rilmoxda. Biroq ayrim obidalar holatini ko’rib yurak achiydi: e’tiborsizlik, restavratsiya muammolari, turistlar oqimining noto’g’ri boshqarilishi kabi muammolar mavjud.

Tarixiy obidalar nafaqat o’z xalqimiz uchun, balki butun insoniyat uchun qadrlidir. Ular orqali xorijlik sayyoohlар bizning tariximiz, madaniyatimiz, e’tiqodimiz bilan tanishadi. Shu bois turizm sohasi bilan chambarchas bog’liq holda obidalarni saqlash, targ‘ib qilish, zamonaviy texnologiyalar yordamida raqamlashtirish dolzarb masalalardan biridir.

## XULOSA

Tarixiy obidalar – bu nafaqat me’moriy yodgorlik, balki millatning o‘zligi, qalbi va tafakkuri ifodasidir. Ularni asrash va targ‘ib qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Shu bois yoshlar qalbiga bu borada muhabbat uyg‘otish, tarixiy merosimizni xalqaro miqyosda tanitish va uni ilmiy asosda o‘rganish orqali biz Vatanimizning kelajagiga xizmat qilamiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent, 2008.
2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi rasmiy sayti.
3. “O‘zbekiston tarixi” darsligi. Toshkent, 2020.
4. [www.unesco.org](http://www.unesco.org)
5. [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)